

“TASDIQLAYMAN”

Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.

O.Voxidov



03

2025 y.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Biznes jarayonlarni boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun
texnik topshiriqnoma

_____ varaqda

_____ dan amal qiladi

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

1.	Umumiy ma'lumot	4
1.1.	Axborot tizimining to'liq nomi va uning shartli belgilanishi.	4
1.2.	Buyurtmachi va BJBTTini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning nomi va rekvizitlari.	4
1.3.	AT yaratishga asos bo'ladigan hujjatlar ro'yxati.	4
1.4.	Ishlarni boshlash va tugatishning reja bo'yicha muddatlari.	5
1.5.	Ishlar natijalarni rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi.	5
2.	BJBTni vazifasi va yaratish maqsadlari	6
2.1.	BJBTning asosiy vazifasi	6
2.2.	BJBTini yaratish maqsadlari.	6
3.	Axborotlashtirish ob'yekting xarakteristikasi.	7
4.	BJBTga qo'yiladigan talablar.	7
4.1.	Umumiy ATga qo'yilgan talablar.	7
4.1.1.	AT strukturasi va ishlashiga qo'yiladigan talablar.	7
4.1.2.	Chet axborot tizimlari bilan o'zaro ishlashga qo'yiladigan talablar.	3
4.1.3.	Foydalanuvchilarning soniga qo'yiladigan talablar.	3
4.1.4.	Vazifasi ko'rsatkichlari.	3
4.1.5.	Ishonchlilikka qo'yiladigan talablar	10
4.1.6.	Xavfsizlikka qo'yiladigan talablar.	11
4.1.7.	Ergonomika va texnik estetikaga qo'yiladigan talablar.	12
4.1.8.	Ko'chma AT uchun transportda tashish mumkinligiga qo'yiladigan talablar.	12
4.1.9.	AT komponentlaridan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va saqlashga qo'yiladigan talablar.	12
4.1.10.	Patent va litsenziya sofligiga qo'yiladigan talablar.	13
4.1.11.	Standartlashtirish va bir xillashtirishga qo'yiladigan talablar.	13
4.1.12.	Qo'shimcha talablar.	14
4.2.	AT bajaradigan funksiyalarga (vazifalarga) qo'yiladigan talablar.	15
4.2.1.	Biznes-jarayonlarni tavsiflash(modellashtirish) hamda kelishish:	15
4.2.2.	Talqinlarni boshqarish	16
4.2.3.	Biznes-jarayonlar reestri	16
4.2.4.	Bilimlar bazasini yaratish	16
4.2.5.	Risklarni boshqarish	16
4.2.6.	Rollar va kirish huquqlarini boshqarish moduli	16
4.2.7.	Tashqi tizimlar bilan integratsiya	16
4.2.8.	Jarayonlarni hujjatlashtirish	16
4.2.9.	Bankning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish	17
4.2.10.	Bankning informatsion texnologiyalar arxitekturasini shakllantirish	17
4.2.11.	Samaradorlik ko'rsatkichlari bilan ishlash	17
4.2.12.	Biznes jarayonlarni imitatsion modellashtirish va funksional-qiymatli tahlil qilish	17
4.2.13.	Administrator moduli	18

4.3.	Ta'minot turlariga qo'yiladigan talablar.	18
4.3.1.	Axborot ta'minotiga qo'yiladigan talablar.	18
4.3.2.	Lingvistik ta'minotga qo'yiladigan talablar.	18
4.3.3.	Dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablar.	19
4.3.4.	Texnik ta'minotga qo'yiladigan talablar.	19
4.3.5.	Metrologik ta'minotga qo'yiladigan talablar.	20
4.3.6.	Tashkiliy ta'minotga qo'yiladigan talablar.	20
4.3.7.	Uslubiy ta'minotga qo'yiladigan talablar	20
5.	ATni yaratish ishlarining tarkibi va mazmuni	22
6.	ATni nazorat qilish va qabul qilish tartibi	23
7.	BJBTini ishga tushirishga tayyorlash ishlarining tarkibi va mazmuniga qo'yiladigan talablar	27
8.	Hujjatlashtirishga qo'yiladigan talablar.	28

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Biznes jarayonlarni boshqarish tizimini ishlab chiqish uchun texnik topshiriqnomaga

1. Umumiy ma’lumot

1.1. Axborot tizimining to‘liq nomi va uning shartli belgilanishi.

Tizimning to‘liq nomi - “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda Biznes jarayonlarni boshqarish tizimi.

Tizimning shartli belgilanishi - “BJBT” axborot tizimi.

1.2. Buyurtmachi va BJBTni ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning nomi va rekvizitlari.

Buyurtmachi tashkilot: “Biznesni rivojlantirish banki” Aksiyadorlik Tijorat Banki

Manzil: Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy.

Tel: 78-150-93-39

X/R:29802000900001037006

MFO: 01037

INN: 209916313

OKED: 64.92.0

Ro‘yxat raqam Q.Q.S: 326050006407

Bank veb sayti: brb.uz

Pochta manzili: info@brb.uz

Axborot tizimi ishlab chiqaruvchi tashkilot tender (tanlov) savdolarining natijalari asosida aniqlanadi.

1.3. AT yaratishga asos bo‘ladigan hujjatlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 apreldagi “elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi” 611-2-sonli Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni (13a-bandi).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-4699-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 37-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 5 apreldagi "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 916-sonli Nizom.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2024-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasi(Strat03)

1.4. Ishlarni boshlash va tugatishning reja bo'yicha muddatlari.

BJBT loyihasini quyida belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

Boshlanish vaqti: **03.01.2025**

Yakunlash vaqti: **30.06.2025**

1.5. Ishlar natijalarni rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi.

Tizim shartnomada belgilangan muddatlarda kompleks shaklida ishga tushiriladi.

Alohida bosqichlar va umuman ish tugagandan so'ng, pudratchi tashkilot tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan ishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni aks ettirgan holda ishni qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

Ish natijalari Axborot texnologiyalari, Operatsion departamentlar va Axborot xavfsizligi markazi tegishli xodimlaridan iborat qabul komissiyasi tomonidan baxolanadi va qabul qilinadi.

Ish tugagandan so'ng, pudratchi qabul qilish to'g'risidagi aktni taqdim etadi. Ishlarni topshirish va qabul qilish sanasi aktni qabul qilish komissiyasi tomonidan imzolangan sana hisoblanadi.

2. BJBTTni vazifasi va yaratish maqsadlari

2.1. BJBTTning asosiy vazifasi bankda biznes jarayonlarning chizmalarini, reestrini shakllantirish, ularning o'zaro bog'liqligini aks ettirish va hisobini yuritish hamda boshqarish imkoniyatini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek BJBTT quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

biznes jarayonlarni tavsiflash va kelishish;

biznes jarayonlarning reestrini(shajarasini) shakllantirish;

biznes jarayonlarni reglamentini avtomat shakllantirish;

biznes jarayonlarning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rnatish;

biznes jarayonlardagi operatsion xatarlarni belgilash va hisobini yuritish;

bankning tashkiliy tuzilmasi shajarasini shakllantirish;

bankning axborot texnologiyalari arxitekturasini shakllantirish;

xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini avtomat shakllantirish.

2.2. BJBTTni yaratish maqsadlari.

funksional yondashuvli boshqaruvdan jarayonli yondashuvli boshqaruv tizimiga o'tish;

biznes jarayonlarni optimallashtirish uchun asos yaratadi;

jarayonlarning shaffofligi va boshqaruvchanligini oshiradi;

strategik boshqaruvni qo'llab-quvvatlaydi;

operatsion xatarlar va xarajatlarni kamaytiradi;

departamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilaydi

jarayonlarni doimiy yaxshilash madaniyatini shakllantirishga asos yaratadi.

3. Axborotlashtirish ob'yekting xarakteristikasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-292-son qarorining 2-bandida "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki negizida "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB aksionerlari sirasiga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.

Bank faoliyatining predmeti va maqsadlari:

bank hisobvaraklarini ochish va yuritish, tulovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, uz nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiradi;

bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi;

Joriy jarayon haqida qisqacha ma'lumot.

Bugungi kunda bankda biznes jarayonlar tavsiflanib, tasdiqlangan holda shakllantirilgan va biznes jarayonlarning dastlabki reestri EXCELda shakllantirilgan va biznes jarayonlar bankning tegishli tarkibiy tuzilmasining kompyuterlarida saqlanib kelinmoqda. Hozirda bankda biznes jarayonlarni bir tizimda boshqarish zaruriyati mavjud.

4. BJB Tga qo'yiladigan talablar.

4.1. Umumiy BJB Tga qo'yilgan talablar.

4.1.1. BJB T strukturasi va ishlashiga qo'yiladigan talablar.

Kontseptual ravishda BJB T quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1) foydalanuvchilarning o'zaro ta'sirining quyi tizimlari - tizimda saqlangan ma'lumotlarni kiritish va ko'rishni ta'minlash;

2) tahliliy quyi tizimlar - biznes-jarayonlarni tahlil qilish, ko'rsatkichlar va hisobotlarning vizual tasvirlarini tayyorlash va namoyish qilish uchun;

3) asosiy xizmatlar quyi tizimlari - tizimning umumiy ishlashini, nazorat qilish, boshqarish va qo'llab-quvvatlash vositalarini ta'minlaydigan texnologik yadro;

4) axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'lumotlarni himoya qilish uchun quyi tizimlar - ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish, qayta ishlash va saqlash jarayonida foydalanuvchi ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash.

Asosiy xizmatlar quyi tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- 1) biznes-jarayonlarni tavsiflash(modellashtirish) hamda kelishish moduli;
- 2) talqinlarni boshqarish moduli;
- 3) biznes-jarayonlar reestri moduli;
- 4) bilimlar bazasini yaratish moduli;
- 5) risklarni boshqarish moduli;
- 6) rollar va kirish huquqlarini boshqarish moduli;
- 7) tashqi tizimlar bilan integratsiya qilish moduli;
- 8) jarayonlarni hujjatlashtirish moduli;
- 9) bankning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish moduli;
- 10) bankning informatsion texnologiyalar arxitekturasini shakllantirish moduli;
- 11) samaradorlik ko'rsatkichlari bilan ishlash moduli;
- 12) biznes jarayonlarni imitatsion modellashtirish va funksional-qiymatli tahlil moduli;
- 13) Administrator moduli.

4.1.2. Chet axborot tizimlari bilan o'zaro ishlashga qo'yiladigan talablar.

Tizim API xizmatlari orqali boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyasi qilinmaydi.

4.1.3. Foydalanuvchilarning soniga qo'yiladigan talablar.

Hujjatlarni kelishish va tasdiqlatish hamda ishda foydalanish uchun tanishishda quyidagi rollar bo'lishi lozim:

tizim ma'lumotlari bilan tanishish imkoniyati(foydalanuvchi) 3 000 ta;

tizimga ma'lumotlarni kelishuvchi(biznes jarayon ishtirokchilari va rahbariyat) 60 ta;

tizimga ma'lumotlarni kirituvchi(Administrator) 5 ta.

4.1.4. Vazifasi ko'rsatkichlari.

Tizimning jarayonlar va boshqaruv usullaridagi o'zgarishlarga moslashish darajasi:

qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini qondirish uchun dasturiy ta'minot bilan ishlashda foydalaniladigan ma'lumotlar formatlari tarkibini o'zgartirish imkoniyati bo'lishi kerak. Yangi foydalanilgan ma'lumotlar formatlari Buyurtmachi tomonidan tavsiflanishi va tasdiqlanishi kerak;

ma'lumotlar bazasining tuzilishi va tarkibi, funksionalligi o'zgarishiga olib keladigan me'yoriy-huquqiy bazaga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tizimni barcha takomillashtirish alohida shartnomalar bo'yicha uni modernizatsiya qilish doirasida amalga oshiriladi.

Tizimning ishlashi:

AT masshtablilik talablariga javob berishi kerak, ya'ni uning tarkibiga kiruvchi apparat va dasturiy ta'minot mos keladigan ma'lumotlar bazasining hisoblash resurslarini ko'paytirish orqali bir vaqtning o'zida kerakli miqdordagi foydalanuvchilarning ishlashini ta'minlashi kerak;

tizimning biron bir axborot resursining mavjud emasligi butun tizimning ishlashiga ta'sir qilmasligi kerak;

Shu sababli, AT uchun mo'ljallangan maqsadga muvofiqlik darajasi ushbu texnik spetsifikatsiya talablariga muvofiqligi, ayniqsa quyi tizimlar va alohida modullarda hal qilinadigan avtomatlashtirilgan funksiyalar va vazifalarning tarkibi nuqtai nazaridan aniqlanadi. Masalan, rejalashtirilgan foizda, dastlabki va hisoblangan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi va natijada olingan yechimlar, ulardan bevosita foydalanish imkoniyati (4.1.-jadval).

№	Maqsadli ko'rsatkichlarining nomi	Izoh
1.	Ishonchlilik ko'rsatkichlari	ATning belgilangan maqsadlarga funktsional muvofiqligini va ATning turli sharoitlarda belgilangan funksiyalarni bajarish qobiliyatini tavsiflash.
1.1.	Yaroqlilik	IP texnik shartlarning belgilangan maqsadlari va funktsional talablariga javob berishi kerak
1.2.	Ximoyalanganlik	Axborot tizimi ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak
1.3.	Ishlash	AT beqarorlashtiruvchi ta'sirlar bo'lmaganda ma'lum rejimlarda ishlashi kerak
1.4.	Mos keluvchanlik	IS va hujjatlar bir xil ob'ektlar, funksiyalar, atamalar, ta'riflar va boshqalar uchun bir xil, izchil tavsiflarga ega bo'lishi kerak.
1.5.	Chidamlilik	AT beqarorlashtiruvchi ta'sirlardan kelib chiqadigan og'ishlar sodir bo'lganidan keyin ISning uzluksiz ishlashini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

2.	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Iqtisodiy, vaqt va boshqa axborot resurslarini hisobga olgan holda foydalanuvchining ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasini tavsiflash.
2.1.	Tezkorlik	AT belgilangan talablarga javob beradigan vaqt oraliq'ida harakatlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak
2.2.	Iqtisodiy	AT minimal tizim resurslarida ishlay olishi kerak
3.	Texnologik ko'rsatkichlar	ATdagi xatolarni bartaraf etishni osonlashtiradigan texnologik jihatlarni tavsiflash
3.1.	O'zgartirish imkoniyati	AT ish paytida ATga kerakli o'zgartirishlar va modifikatsiyalarni kiritish qulayligini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak
3.2.	Takroriylik	AT standart dizayn yechimlari yoki quyi tizimlardan foydalanishi kerak
3.3.	Strukturaviylik	AT o'zaro bog'liq funksiyalarni bajaradigan komplekslardan iborat bo'lishi kerak

4.1.5. Ishonchlilikka qo'yiladigan talablar.

Umuman axborot tizimi uchun ishonchlilik ko'rsatkichlarining tarkibi va miqdoriy kiymatlari:

tizimni zaxiralash imkoniyati;
 tizimni arxivlangan nusxalardan qo'lda va avtomatik ravishda tiklash imkoniyati;
 oddiy ish sharoitida dasturiy-apparat kompleksining barqaror ishlashi;
 elektr uzilishidan keyin tizimni ishchi holatini tiklash 30 daqiqadan o'tmagan holda, bu ma'lumotlar bazasida va tizim sozlamalarida nosozliklarga olib kelmasligi kerak;
 avtomatik rejimda arxivlangan nusxadan tizimni tiklash: 2 soatdan kam vaqt orasida.
 Dasturiy ta'minotning barqaror ishlashini ta'minlash kerak: tizim va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) vositalari tomonidan ma'lumotlarni avtomatik zaxiralash imkoniyati, administrator tomonidan tizimni o'z-o'zidan zaxiralash imkoniyati.

Nosozliklar va elektr uzilishlari tizimning yo'q qilinishiga, ma'lumotlarning yo'qolishiga va axborot xavfsizligining buzilishiga olib kelmasligi kerak.

Tizimning ishlash muddati individual texnik vositalarni almashtirish imkoniyati bilan cheklanmasligi kerak.

Ma'lumotlarni saqlashni ta'minlash uchun zaxira yaratish Backup yordamida operatsion tizim va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) qoidalarga muvofiq kuniga kamida bir marta amalga oshiriladi.

Axborot xavfsizligini quyidagi xodisalar (baxtsiz xodisalar, muvaffaqiyatsizliklar va boshqalar) sodir bo'lganda ta'minlanishi kerak:

server qurilmalari ishdan chiqishi;
ish joyida yoki ma'lumotlar bazasi serverida elektr uzilishi;
ish stansiyasida apparatlar ishdan chiqishi;
aloqa liniyalarining ishlamay qolishi.

Tizim ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilardan foydalanish kerak:

zaxiralash;

maxsus dasturiy ta'minot yoki uning tarkibiy qismlarini rejadan tashqari o'chirishga olib keladigan apparat va dasturiy ta'minot ishlamay qolganda ma'lumotlarni tiklash, masalan, elektr uzilishi paytida tizimni o'chirish, operatsion tizimning ishdan chiqishi va boshqalar;

tarmoq, dasturiy ta'minot va apparat nosozliklarida ma'lumotlarni izchil holatga qaytarish.

Ma'lumotlarni zaxiralash, arxivlash va tiklash standart ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) vositalari va dastur serveri yordamida amalga oshirilishi kerak.

Tizimning ishlashini nazorat qilish, rejali va rejadan tashqari muntazam texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni bartaraf etish tegishli bo'limlarning bir qismi bo'lgan tezkor xodimlar yoki shartnoma asosida tizimni texnik qo'llab-quvvatlovchi autsorsing kompaniyasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Baxtsiz xodisalar yuz berganda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash choralari Bank tomonidan tasdiqlangan tegishli hujjatlarda tavsiflanishi kerak.

Axborot tizimi yaratishning turli bosqichlarida ishonchlilik ko'rsatkichlarini baholash va nazorat qilish usullariga qo'yiladigan talablar:

Ishonchlilik talablariga muvofiqligini tekshirish loyihalash bosqichida hisoblash yo'li bilan amalga oshirilishi kerak;

Axborot tizimining sinov va sanoat faoliyati davomida ishonchliligini eksperimental baholash amalga oshirilishi kerak.

4.1.6. Xavfsizlikka qo'yiladigan talablar.

Ushbu tizim quyidagilarni ta'minlashi kerak:

himoyalangan ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishlarga qarshi kurashish;

ma'lumotlarni ruxsatsiz o'qish, o'zgartirish va yo'q qilishga qaratilgan urinishlarni to'xtatish;

dasturiy ta'minotning yaxlitligi;

Axborot tizimida saqlanadigan barcha ma'lumotlar obyektlari va hujjatlari matritsa xavfsizlik sxemasiga muvofiq himoyalangan bo'lishi kerak. Foydalanuvchilarga tayinlangan kirish darajalari matritsasi faqat axborot tizim administratori kirish huquqiga ega bo'lgan xavfsiz tizim muharririda yaratilishi va taxrirlanishi kerak.

Tizimga login va parol orqali kirish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Axborot tizim foydalanuvchilari o'rtasidagi funktsionallikni farqlash uchun asosiy rollar to'plami amalga oshirilishi kerak.

Rollarning to'liq ro'yxati loyihalashtirish bosqichida aniqlanishi kerak.

Tizim foydalanuvchilarning xavfsiz ishlashini, xavfsizlik bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar va maxsus tayyorgarlikni talab qilmasdan, shu jumladan, Foydalanuvchining noto'g'ri harakatlari, foydalaniladigan texnik vositalarning korpuslarini ochish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday holatda ta'minlashi kerak.

Energiya bilan ta'minlangan tizimning texnik vositalarining barcha tashqi elementlari tasodifiy aloqa qilishdan himoyaga ega bo'lishi kerak va texnik vositalarning uzi amaldagi GOST 12.1.030-81 standartlari talablariga va elektr inshootlarini (PUE) o'rnatish qoidalariga muvofiq nol yoki himoya zazemleniega ega bo'lishi kerak.

Elektr ta'minoti tizimi ortiqcha yuklanishi va qisqa tutashuvlar, shuningdek, favqulodda qo'lda o'chirish holatlaridan himoya o'chirishni ta'minlashi kerak.

Tizimning texnik vositalarining ishlashi xavfsizlik va mehnatni muxofaza qilish bo'yicha amaldagi tartib, qoidalarga muvofiq choralarni nazarda tutishi kerak.

Shuningdek, BJBТ va uning tarmoq infratuzilmalari amaldagi qonun hujjatlarida hamda quyidagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak:

O'zDSt 2814:2014 "Axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar, axborotga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish darajasi bo'yicha tasniflash";

O'zDSt 2815:2014 "Axborot texnologiyalari, Xavfsizlik devorlari, axborotga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish darajasi bo'yicha tasniflash";

O'zDSt 2816:2014 "Axborot texnologiyalari, axborot xavfsizligi dasturlarini e'lon qilinmagan imkoniyatlarning yo'qligini nazorat qilish darajasi bo'yicha tasniflash";

O'zDSt 2817:2014 "Axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, Axborotga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish darajasiga ko'ra tasniflash".

4.1.7. Ergonomika va texnik estetikaga qo'yiladigan talablar.

Foydalanuvchilar va biznes jarayonlarni tasdiqlovchilar ushbu tizimga veb-brauzer orqali kiradi.

Tizimga ma'lumotlarni kirituvchilar va Tizim administratori Desktop shaklida kirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

BJBT mashxur veb-brauzerlarning barcha joriy versiyalarida to'g'ri ishlashi kerak.

Tizim barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun kerakli interfeyslarni taqdim etishi kerak.

Interfeyslar veb-ilovalar, grafik qobiqlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ishlayotgan xodimlarning ish joylarini jixozlash bankning ichki tartib va qoidalariga muvofiq uzluksiz (elektron hujjat bilan ishlash, operatsiyalarini amalga oshirish uchun ish joyidan chiqib ketishga hojat qoldirmasdan) ish siklini ta'minlashi kerak.

4.1.8. Ko'chma AT uchun transportda tashish mumkinligiga qo'yiladigan talablar.

Axborot tizim statsionar va o'rnatilib, ishga tushirilgandan keyin tashilmaydi.

4.1.9. AT komponentlaridan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash

va saqlashga qo'yiladigan talablar.

Tizim ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish Bank tarkibidagi Axborot texnologiyalari departamentining tegishli xodimlarga yuklatilgan. Xodimlar dasturiy ta'minot yordamida tizim komponentlarini sinab ko'rish, eng oddiy nosozliklarni tashxislash, periferik qurilmalarning asosiy tugunlarini cheklangan xizmat muddati bilan almashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Eng oddiy nosozliklar ro'yxati, ularni bartaraf etish usullari, texnik vositalarga texnik xizmat ko'rsatishning eng oddiy operatsiyalari tizim komponentlari uchun operatsion hujjatlarda ko'rsatilishi kerak.

Kompleks texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshirish texnik vositalarni yetkazib beruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshirilishi kerak va tegishli texnik xizmat ko'rsatish shartnomasi bilan belgilanadi.

Shaxsiy texnik vositalarga muntazam texnik xizmat ko'rsatish tartibi operatsion hujjatlarda belgilanishi kerak.

Texnik jixozlarni ta'mirlash ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish markazlarida malakali xodimlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Texnik vositalarni ish joyiga o'rnatish va sozlash ushbu texnik spesifikasiyani amalga oshirish bosqichida aniqlangan pudratchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

4.1.10. Patent va litsenziya soflligiga qo'yiladigan talablar.

Tizimni amalga oshirish amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq patent sofligi talablariga javob berishi kerak.

Pudratchi litsenziya shartnomalari yoki litsenziyani sotib olish shartnomasi shaklida qo'llaniladigan yechimning patent sofligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi shart.

4.1.11. Standartlashtirish va bir xillashtirishga qo'yiladigan talablar.

Tizimni ishlab chiqishda standartlashtirish va birxillashtirish quyidagi darajalarda ta'minlanishi kerak:

ma'lumotlar klassifikatorlari darajasida;

xodimlarning o'zaro ta'sir interfeyslari darajasida (ma'lumotlarni kiritish va kuzatish operatorlari);

foydalanuvchi o'zaro ta'sirlar interfeyslari darajasida;

masofaviy foydalanuvchilar va tashqi o'zaro ta'sir qiluvchi tizimlar bilan axborot o'zaro aloqasi protokoli darajasida (TCP/IP protokoli to'plami);

API interfeys darajasida, tashqi ilovalar bilan ishlashda;

tashqi axborot tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan veb-xizmat interfeyslari darajasida;

axborot ta'minoti darajasida hujjatlarning standart shakllari (shartnomalar, arizalar, hisobotlar va boshqalar).

Ma'lumotlar bazasi serverlari, boshqaruv va xavfsizlik tizimlari texnik loyihalash bosqichida tanlangan operatsion tizimlar nazorati ostida ishlashi kerak.

Ekran shakllarini ishlab chiqishda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

kiritish maydonlari va yozuvlarning joylashuvi ekranning kengligiga mos ke'ishi

kerak (gorizontal aylantirishga yo'l qo'yilmaydi), agar kerak bo'lsa vertikal aylantirish mumkin;

saxifadan boshqa saxifaga o'tishda (yarlik, elektron shakl) tizim tomonidan uzgarishlar qayd etilgan bo'lsa, ma'lumotlarni saqlash so'rovi bo'lishi kerak. Bu kiritilgan uzgarishlarning yo'qolishining oldini olish uchun kerak.

4.1.12. Qo'shimcha talablar.

Tizimni ishlab chiquvchi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

1) BJBT tizimi dasturiy ta'minoti (BPMT) litsenziysini etkazib berishi va ishga tushirishi kerak. Litsenziya kamida 3 yilga amal qilishi, kamida 5 ta administrator va kamida 3 000 ta foydalanuvchiga mo'ljallangan bo'lishi hamda kamida 60 ta hujjatlarni kelishish va tasdiqlash imkoniyatiga ega foydalanuvchilardan iborat bo'lishi zarur;

2) Buyurtmachi BJBT tizimi dasturiy ta'minoti yordamida qabul qiluvchiga bankning 5 ta biznes jarayonlarini tizimning barcha funksionallarini ishlatgan holda modelashtirishi(chizishi) kerak;

3) BJBT dasturiy ta'minotida biznes jarayonlarni funksional talablarni ishlatish va jorish qilish buyicha banking kamida 10 ta hodimini kamida 20 soat miqdoriga o'qitishi kerak.

Tizimni ishlab chiquvchi tomonidan rasman tasdiqlangan holda ish qobiliyatiga ega funksional holatda yetkazib berilishi kerak.

Tizimni ishlab chiqqan tashkilot tizimdan foydalaniuvchi tashkilotga texnologiyalar va boshqa intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan huquqlarning mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.

Tizimni ishlab chiqqan tashkilot kompyuter dasturiy ta'minoti uchinchi shaxslarning huquqlaridan xoli ekanligiga, garov bilan yuklanmaganligiga va uchinchi shaxslarning da'volari mavjud emasligiga kafolat beradi. Dasturni ishlab chiqqan tashkilot tomonidan xizmat ko'rsatish chog'ida fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini buzadigan, tarqatilishi taqiqlangan yoki cheklangan materiallar va ma'lumotlar tarqatilmaydi.

Hujjatlashtirish talabi: kompyuter dasturiy ta'minoti o'z tarkibida quyidagi hujjatlarni o'zbek va rus tillarida saqlashi kerak:

foydalanuvchi qo'llanmasi;

administratsiya bo'yicha yo'riqnoma.

Tizimdan foydalanish uchun litsenziya asosida yoki to'liq foydalanish sharti bilan bankka qo'shimcha xarajatlarsiz tizimdan kamida 3 yil foydalanish huquqini berishi shart.

Texnik qo'llab-quvvatlash va versiyalarni yangilash bo'yicha talablar: kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanish huquqi tomonlar o'rtasida tizimdan foydalanish huquqini berish aktini imzolash sanasidan boshlab kamida 12 oy davomida texnik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni o'z ichiga olishi kerak. Texnik qo'llab-quvvatlash ish vaqtida telefon aloqasi va elektron pochta orqali taqdim etilishi kerak.

Xavfsizlikka bo'lgan talablar: Yakuniy foydalanuvchi tomonidan foydalaniladigan dasturiy ta'minot axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Dasturiy ta'minotni texnik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash kerak.

Dasturiy ta'minot bilan ishlash bo'yicha maslahat xizmatlarini telefon aloqasi yoki dasturiy ta'minot ishlab chiquvchisining boshqa onlayn resurslari orqali taqdim etish, shu jumladan, ishlab chiquvchi dasturiy ta'minotida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishi kerak.

Tizimni taqdim etuvchi tizimning yangi versiyalari yaratilganda foydalanuvchiga tizimning huquqini, yangi versiyani dasturiy qo'llab quvvatlashi kerak.

Dasturiy ta'minotning muhim yangilanishlari haqida ishlab chiquvchining onlayn resurslarida va elektron pochta orqali foydalanuvchini xabardor qilish kerak.

Tizim ekspluatatsiyaga kiritilgan kundan boshlab 1 yil muddatga kafolatga ega bo'lishi kerak. Kafolat davri mobaynida qandaydir nosozliklar, xatolar yoki buzilishlar yuzaga kelgan taqdirda, ijrochi bepul texnik qo'llab-quvvatlash va nosozliklarni bartaraf etishni ta'minlashi shart.

Ijrochi bankning kamida 10 nafar xodimini biznes jarayonlarni boshqarish tizimining barcha funktsional imkoniyatlari bo'yicha o'qitishga majbur. O'qitish foydalanuvchilarning tizim bilan ishlashni to'liq tushunishi va ularning mustaqil ravishda ishlashini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tizimni joriy etish doirasida ijrochi bank vakillari bilan birgalikda bankning operatsion faoliyati uchun eng muhim bo'lgan kamida beshta asosiy biznes jarayonini tizimning funktsional imkoniyatlarini qo'llagan holda tasvirlashi shart.

4.2. AT bajaradigan funksiyalarga (vazifalarga) qo'yiladigan talablar.

Axborot tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

4.2.1. Biznes-jarayonlarni tavsiflash(modellashtirish) hamda kelishish:

tizim biznes-jarayonlarni yaratish, tahrirlash va o'chirish imkonini qo'llab-quvvatlashi kerak;

